

SAFFRON PLANT AND ITS MEDICINAL PROPERTIES

Komila Eshonqulova

Assistant of the Department of Pharmacology

Ernazarova M.SH.

Assistant of the Department of Pharmacology.

+998941814769

Egamberdiyeva X.X.

SamMI Faculty of Pharmacy 3rd year student.

+998996203817

Yuldoshev Soxibjon

student of the Faculty of Pharmacy

+998995987593

@ samMiFarm303

Annotation:

Medicinal properties of saffron and its use in medicine.

Keywords: Crocus, protocrocin, carotene, antispasmodic, diuretic, hematopoietic, Antioxidant, antidepressant, saffron.

Shafran yoxud za'faron juda qadimdan buyon insonlar tomonidan foydalanilib kelayotgan dorivor o'simliklardan biri. Bu o'simlikning vatani Kichik Osiyo, Yaqin Sharq va Hindiston hisoblanadi. U Shumer sivilizatsiya davrida ham mavjud bo'lgan. Qadimgi Krit davlatdagi saroy devorlarida shafran terayotgan odamlar tasviri chizilgan. Eramizgacha bo'lgan davrdagi Xitoy tibbiy kitoblarida, 1500 yil oldin Misr yozuvlarida ham shafranning dorivor xususiyatlari yozib qoldirilgan. Bobur o'zining "Boburnoma" sida Kashmir tog' va adirlarida za'faron o'sishini ta'kidlagan. Shafran so'zi arabcha "za-fran" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, za'faron, sap-sariq, sarg'ish degan ma'noni anglatadi. Bugungi kunda za'faron o'simligi Fransiya, Italiya, Turkiya, Eron, Xitoy, Poksiton, Ispaniya, Yaponiya, Ozarbayjon, Rossiya va boshqa mamlakatlar hududlarida keng tarqalgan. U juda qimmatbaho o'simlik bo'lib, bir gramm za'faronning narxi bir gramm oltin bahosi bilan teng.




Za'faron (*Crocus sativus*-lotincha)-safsarguldoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'tsimon tuganak piyoz o'simlik. Yovvoyi holda uchramaydi. Piyozining diametri 1-2 sm. Bargi 5-15 ta, och sariq rangda; eni 2mm, tuksiz. Guli 1-4 ta, gultoji oqish, pastki qismi (tashqi tomondan) binafsha rang, uzunligi 2-4 sm. Changchilari gulqo'rg'onda qisqa. Kusagi cho'ziq, eni 6-7 mm. Fevral-iyulda gullaydi, aprel-avgustda meva beradi. Tarkibida efir moyi bo'lgani uchun hidi juda o'tkir va yoqimli. 90-100 ming dona za'faron gulidan 1 kg qurigan gul tumshuqchalari olinadi. Za'faron gulining quritilgan tumshuqchalari murabbo, tortlarni rangi va ta'mini yaxshilash, oziq-ovat (pishloq, saryog', likyor va boshqalarda rang berish uchun), parfyumera (atir-upa) sanoatida ishlatiladi. Tabobatda dori-darmon sifatida qo'llaniladi. Za'faron ayniqsa dorishinoslik sanoatida ishlatiladi, 300 dan ortiq dori-darmonlari tarkibiga kiradi. Uning damlamasi bilan qadimdan kataraktani davolashgan, hozirgi vaqtda ham u ko'zga tomizladigan dorilar tarkibida qo'shiladi. Za'faron juda ko'p kasalliklarga foyda bo'lib, uni asosan damlama va boshqa shifobaxsh o'simliklar bilan birgalikda qo'llaniladi.



Za'faron Sharqda "qizil oltin" deb nomlangan. Za'faron qimmatbaholigining sababi ikkita:

- birinchidan, uni yetishtirish juda mashaqqatli ish,
- ikkinchidan, xushbo'yliigi, ta'mi va davolash xususiyatlari bo'yicha za'faron ziravorlar orasida tengsizdir.

Za'faron-yiliga bir marta 10-15 kun ommaviy gullaydi, har birbgul ochilishining davomiyligi faqat 2-3 kun bo'lgan qirmizi onalik guli tumshuqchalarining quritilganidir. Za'faron gullari va xususan onalik gullarini qayta ishlash faqat qo'l



mehnati bilan amalga oshiriladi. Onalik gullari tumshug'i faqat gullarining birinch ochilgan kuni qirqib olishi lozim. Uning sifati terim va uni quritishning tezligi bilan bog'liqdir. Bir kilogramm za'faron yig'ish uchun tongda qo'yosh hali onalik gullarini quritib ulgurmasdan, 150 ming dona atrofidagi guli terib olinishi lozim. Bir gektar yer maydonidan terimchilarning mahorati va ob-havoning munosib sharoitiga qarab 8-12 kilogramm za'faron yig'ib olish mumkin.

Za'afon (shafran) ni kimyoviy tarkibi va ozuqaviy qiymati:

Za'faronning koloriya miqdori yoki energiya qiymati-100 gramm mahsulot uchun 310 kkal, shuningdek;

-yog'-5,85 g,

-uglevodlar-61,47 g,

-oqsil-11,43 g.

Za'faroning asosiy komponenti protokrosin glikozidining organik moddasi ko'rinishidagi efir moyidir./


Uning tarkibiga yana: A, C, B1, B2, B3, B9 va PP vitaminlar, mikro va makro elementlar (temir, magniy, kaliy, kalsiy, selen, rux, marganes va mis), efir moylari, karotinlar, saxaridlar, krosetinlar uchraydi.

Za'faron noyob xususiyatlarga ega va tanamizning barcha organlari va tizimlarining ishiga foydali ta'sir kursatadi. Kichik miqdorda u melanholiya va ruxiy tushkunlikni yengillashtiradi, quvonch garmoni-serotonin ishlab chiqarishga yordam beradi. U ajoyib antispazmotik, diuretik va yallig'lanishga qarshi vositadir, shuningdek xotirani yaxshilaydi, ovqat hazim qilishini normallashtiradi, erkaklar quvvatini oshiradi. Qadimgi davrlarda achchiq damlamasini hayz paytida va tug'ruqdan oldin og'riqni yengillashtirish uchun ayollarga berishgan. Za'faron quruq bronxit, qizamiq ko'k yutalni davolaydi.






Bundan tashqari za'faron ,tanani toksinlardan tozalaydi,terini mustahkamlash va to'qimalarning elastikligini oshiradi,tanadagi suyak-mushak tuzilmalarini kuchaytiradi,gemopoetik tizimni barqarorlashtiradi,immunitet tizimining shakillatiradi va mustahkamlaydi.Ushbu ziravordan foydalangan holda,turli xil kasalliklarni davolash va oldini olish uchun ko'plab xalq davolanishlari amalga oshiriladi.Masalan,za'faron sut(o'simlik choyi) va asal bilan birgalikda buyrak va o't toshlarinin ertishida ishlatiladi.Tanani tozalash va yoshartirish uchun za'faronning turli xil damlamalari va infuziylari qo'llaniladi.Za'faronga asoslangan mahsulotlar tomoq va yuqori nafas yo'llarining kasaliklarini davolash uchun ishlatiladi.Ziravor virusli,bacterial,zamburug'li infeksiyalarining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.An'anaviy tibbiyotda bo'g'implarni va mushak to'qimalarini davolashga qaratilgan za'faron asosdagi reseptlar juda ko'p.Za'faron turli xil tinchlantiruvchi dorilarning bir qismidir.Ushbu ziravor asab tizimini bo'shashtiradi va sog'lom uyquni ta'minlaydi.Ko'pincha za'faron endokrin kolleksiyasining bir qismidir.Ushbu ziravor tibiiy afrodizyak sifatida erkaklar va ayollarda jinsiy funksiyalarni tiklash va saqlash uchun ishlatiladi.Za'faron ba'zan astma va boshqa allergik kasalliklarni davolash uchun ham foydalaniladi.



Abu Ali ibn Sino "Al-qonun"asarida 900 ga yaqin o'simlikning shifobaxsh xususiyatlari va ularni ishlatish usullari to'g'risi ma'lumot beradi.Asarda za'faronning 100 dan ortiq kasalliklarni davolashda foydalanilishini qayd etgan. Abu Ali ibn Sinoning ma'lumotlariga ko'ra,za'faron burishtiruvchi va erituvchi bo'lib,burishtiruvchi eriyuvchi bo'lib burishtirish va yelimplash xususiyati bo'ganligidan yetiltiruvchi xususiyati ham bor.Issiqligi mo'tadil bo'lganligi uchun tomirdagi har xil tiqilmalar yoki tromblarni davolashda foydalaniladi.Ichki a'zolari kuchaytiradi,tana terisi rangini chiroyli ,ko'zni ravshan qiladi va yurak



faoliyatini kuchaytiradi. Shuningdek, balg'am ko'chishini osonlashtirib, nafas a'zolarining faoliyatini ma'romga soladi.

Zafaron kuchli antioksidantdir. Za'faron tarkibida antioksidant vazifasini o'taydigan ta'sirchan o'simlik birikmalari mavjud-bu hujayralarni erkin radikallari va oksidlovchi stressdan himoya qiluvchi malekulardir. Za'faron antioksidantlarining tarkibida krosin, krosetin, shafranal va kaempferol kiradi. Krosin va krosetin karotenoid pigmentlar bo'lib, za'faronning qizil rangiga javobgardir. Ikkala birikma ham antidepressant xususiyatiga ega bo'lish mumkin, miya hujayralarini progressive shikastlanishdan himoya qiladi, yallig'lanishni yaxshilaydi, ishtahani kamaytiradi va vazn yo'qotishga yordam beradi. Shafranal za'faronga o'ziga xos ta'm va hid beradi. Tadqiqotlar shuni kursatadiki, u sizni kayfiyatingizni yaxshilashga yordam beradi, shuningek miya hujayralarni oksidlovchi stressdan himoya qiladi. Kaempferol za'faron gul barglarida uchrab, ushbu birikma yallig'lanishning pasayishi, saratonga qarshi xususiyatlar antidepressant faolligi kabi sog'liq uchun foydalidir.

Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar. Za'faron dorivor xususiyatlari bilan tanilgan, ammo tanaga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. To'liq sog'lom odamda ushbu ziravorning 2 grammi qusish, diareya va zaharlanishni keltirib chiqarish mumkin. Gipertenziya bilan, haddan tashqari doza bosh aylanishi, talvasa (tortshish, tirishish)ni keltirib chiqaradi. Ziravorlar diabet, yurak va qon-tomirlari kasalliklaridan aziyat chekadigan odamlar uchun mumkin emas. Dozani oshirib yuborish asabiy hayajonga, zaharlanishga, komaga va hatto o'limga olib kelish mumkin. Spirtli ichimliklar bilan ziravorlar ichish mastlikni kuchaytiradi.

Xulosa: Bu o'simlikni yetishtirish va yig'ib olish bir muncha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi shu sababli ham oltinga teng ziravoridir. Hozirgi kunda ona zamirimiz O'zbekistonda ham bu o'simlikni yetishtirish yo'lga quyildi. Chet davlatlardan olib kelinga Ekma za'faron tunganak piyozi hozirda ekilmoqda va xalqimizga va chet davlatlariga eksport qilinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Ali ibn Sino "Al-qonun" asari.
2. t.me/zafaron_uz